

Zokir SODIKOV,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi
kafedrasi mudiri

MILLIY IQTISODIYOTNI YANGILASHDA INVESTISIYALARNING O'ZIGA XOS ROLI

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yillarida salmoqli yutuq va natijalarga erishishida samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosatining maqbulligi va izchil amalga oshirilishi asos ekanligi aniq. Ayniqsa, muntazam belgilanayotgan iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari va muhim dasturlar alohida o'rin tutmoqda. Mustaqil taraqqiyot yillarida asosiy e'tibor va harakatlar yakdil maqsad sari yo'naltirilib, mavjud salohiyatdan samarali foydalanishda iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarining belgilanishi muvaffaqiyatlar uchun zamin hosil qilayotganligi ayni haqiqat. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish zarur" deb¹ istiqbolli vazifalarni ko'rsatib berganlar.

Iqtisodiyotimizda chuqur va tub o'zgarishlar boshlanishi bilan islohotlarni kuchaytirish maqsadida harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, bozor mexanizmlariga asoslangan tizimni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish borasida samarali olib borilayotgan faoliyatlar bugungi kunda o'zining natijasini bermoqda. Ayni paytda, bu islohotlarning hosili jahondagi

aksariyat mamlakatlar milliy bozorlari erishishga qiynalayotgan sharoitda namoyon bo'lib, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Chunki, global miqyosdagi shunday murakkab va og'ir jarayonlarda mamlakatimizning o'ziga xos taraqqiyoti islohotlarni muntazam ravishda chuqurlashtirishga hamda tashqi dunyoning salbiy ta'sirlaridan himoyalanihga imkoniyat yaratib bermoqda.

Mohiyatan, islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish asosida iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlari, samaradorligi va makroiqtisodiy muvozanatini ta'minlash orqali taraqqiyotning asosiy maqsadiga erishilyapti.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab islohotlar strategiyasi belgilanib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga asoslangan tizimni barpo qilish va aholi farovonligini oshirish borasida olib borilgan ishlar bugungi kunda o'zining ijobiy samarasini berayapti. Ayni paytda, bu islohotlarning natijasi jahondagi aksariyat mamlakatlar milliy xo'jaliklariga jiddiy talofatlar keltirib, beqarorlashtirayotgan global moliyaviy inqiroz vaziyatida o'z isbotini topmoqda. Chunki, jahonda ro'y berayotgan shunday murakkab va og'ir jarayonlardan mamlakatimizni o'ziga xos taraqqiyot yo'li va islohotlarni yanada

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020.

chuqurlashtirishni davom ettirish himoyalaniish imkoniyatini ta'minlamoqda.

Iqtisodiyotning barqaror va samarali faoliyatini mustahkamlash, uni jahondagi rivojlangan yetakchi mamlakatlar taraqqiyoti darajasiga yuksaltirish, xalqaro siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash, shuningdek, jahon bozori kon'yukturasidagi tebranishlarga va turli vaziyatlarga nisbatan bardoshli bo'lish, kuchli rivojlanish salohiyatiga erishish zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlarga va ularning samarasiga tayanadi. Mazkur asoslardan kelib chiqib, oxirgi yillardagi taraqqiyotimizni sarhisob qilgan holda, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturini muntazam ravishda takomillashtirish orqali hayotning ertangi kun talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda modernizatsiyalashni va ishlab chiqarish tarkibini diversifikatsiya qilishni kuchaytirish talab etiladi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali faoliyatini mustahkamlash, uni jahondagi rivojlangan yetakchi mamlakatlar taraqqiyoti darajasiga yuksaltirish, xalqaro siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida faol ishtirokchiga aylanishi, shuningdek, jahon bozori kon'yukturasidagi tebranishlarga va turli inqiroz shartlariga nisbatan chidamliligi, mustaqil rivojlanish salohiyatlariga erishish milliy ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlarga va ularning samarali natijalariga tayanadi.

Mamlakatda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish bevosita ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barcha tarmoq va sohalari hamda hududlaridagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga chiqadi. Shu bois, iqtisodiyotning barcha soha va jabhalarida chuqur islohotlarni olib borish, qayta ishlash tizimlarini modernizatsiya qilish jarayonlarini amalga oshirishda uzviylikni va maqbul muvozanatni ta'minlashga erishish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'z navbatida, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida modernizatsiya qilish jarayonlari ishtirokchilari va ularni amalga oshiruvchilarning islohotlardagi modernizatsiya qilish jarayonlari qamrab olgan bo'lib, xususan, bu jarayonlar doirasida

ishlab chiqarishni texnologik jihatdan yangidan jihozlash alohida ahamiyat kasb etayotgani tabiiy hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni chuqurlashib borayotgan davrda ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish jarayoni qtisodiy taraqqiyotning taqozosi hisoblanadi. O'z navbatida mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatorida munosib mavqega ega bo'lishi, mahsulotlarimizning xalqaro bozorlarda raqobatga bardoshligini mustahkamligiga va eksport hajmini salohiyat darajasida oshirilishiga, mavjud ishlab chiqarish tizimini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirishga tayanadi. Shu bilan birga tashqi bozorlardagi talabning moyilligini va o'zgarishlarni ko'zda tutgan holda milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va diversifikatsiya qilish maqsadida taraqqiyot asosida kelib chiqadigan yangi va zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish va jadallashtirish muvaffaqiyatli marralarga yetaklovchi omil hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotning zamonaviy ishlab chiqarish asosi mustahkam bo'lsa, jahonda ro'y beradigan har qanday tanazzullardan va ularning uzoq muddat davom etadigan salbiy illatlaridan himoyalaniishga, shu asosda iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlarini, ishlab chiqarish samarasini va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashga erishiladi.

Iqtisodiyotimiz salohiyati hozirgi kunda barqaror yuksalib borayotganligiga yangi ishlab chiqarish obyektlarining foydalanishga topshirilayotganligi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari ortayotganligi, mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsiya muhiti, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarining izchil rivojlantirilayotganligi, muttasil ravishda ijobiy o'zgarishlarning amalga oshirilayotganligi va iqtisodiyotni erkinlashtirishning chuqurlashayotganligi, rivojlanishning yanada yuksakroq natijalarini keltirib chiqarayotganligi dalolat qiladi. Respublikada tarkibiy chuqurlashuv va o'zgarishlarni izchil amalga oshirilishida yaratilgan sharoitlar va qulay investitsiya muhiti asos bo'lmoqda.

Milliy bozorlarda investitsiya muhitini belgilashda foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi va ularning malakasi, bozor kon'yunkturasi, ichki bozor talabi va tovarlarni eksport qilish imkoniyatlari, kredit tizimi, soliqqa tortish va imtiyozlar, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanganligi, xorijiy investitsiyaga yaratilgan qulayliklar va imtiyozlar, shuningdek, siyosiy, huquqiy-me'yoriy, ijtimoiy va boshqalar ta'sir ko'rsatadi.

Milliy xo'jaligimizda qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz mustaqillikka erishgandan buyon islohotlarning ustuvor jihatlaridan bo'lib kelmoqda. Shu bois investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida muntazam ravishda o'zlashtirilayotgan ichki va tashqi investitsiyalar hajmi muttasil ravishda ortib bormoqda. Jumladan, asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish tendensiyasi borasida keltirilgan ma'lumotlarda ushbu jihatlar aks etgan bo'lib, unda ishlab chiqarish hajmini oshirish va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalar hajmi uzluksiz ortib borganligi kuzatiladi. Bundan qulay investitsiya muhiti yaratilganligi bois asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish tendensiyasi jadallashib borayotganligini xulosa qilish mumkin.

Milliy iqtisodiyotda 2018-yilda iqtisodiyotni yuksak darajada rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 107333,0 mlrd. so'mlik yoki 13,3 mlrd. AQSh dollarilik yohut 2017 yilga nisbatan 118,1 % hajmidagi investitsiyalar asosiy kapitalga o'zlashtirilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish tabiiy qonuniyat hisoblanib, mamlakatimizda yillar mobaynida mazkur jarayonning dinamikasi kuzatiladigan bo'lsa, 2005 yilda – 2,0 trln. so'm va oldingi yilga nisbatan 12,0 %lik o'sish, 2010 yilda – 10,8 trln. so'mlik va oldingi yilga nisbatan 9,0 % o'sish, 2015 yilda – 28,5 trln. so'm va oldingi yilga nisbatan 8,1 % o'sish qayd qilingan va 2018 yilda o'sish borasida eng yuqori ko'rsatkich 18,1 %ni tashkil² etgan.

Milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atiga

erishilishiga 2018 yilda asos bo'lgan sabab Davlat rivojlanish dasturiga kiritilgan yirik investitsiya loyihalari hisoblanadi. Ular qatoriga, tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishga mo'ljallangan Sho'rtan gaz-kimyo kompleksi, qandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlovchi zavodning qurilishi hamda Xauzak va shodi konlarini ishlab chiqarishga tayyorlash, shuningdek Quvachi-Olot konlarini kengaytirish, Hisor investitsiya bloki va Ustyurt hududida konlar bilan ishlash va uglevodorod qazib chiqarishni tashkil etish, To'raqo'rg'on tumanida quvvati 450 MVt dan bo'lgan ikki bug'-gaz qurilmasidan tarkib topgan yangi issiqlik elektr stantsiyasini, Taxiato'sh issiqlik elektr stantsiyasida 230-280 MVt quvvatli ikkita bug'-gaz qurilmasi qurilishi, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida 450 MVt quvvatli 2 bug'-gaz qurilmasini kengaytirish bo'yicha qurilish ishlarining amalga oshirilishi va Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksining qurilishi kabilarni kiritish mumkin.

Mamlakatimiz YIM ga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2018 yilda 26,3 % ni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 3,7 % ga o'sish kuzatilgan. Milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari o'ziga xos bo'lib, 2018-yilda jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 2/3 qismi, ya'ni 66,7 % i mamlakatimizning oltita ma'muriy hududiga, jumladan, Toshkent shahriga – 20,4 %, Qashqadaryo viloyatiga – 14,3 %, Navoiy viloyatiga – 9,4 %, Toshkent viloyatiga – 8,7 %, Buxoro viloyatiga – 7,3% va Namangan viloyatiga – 6,6%i yo'naltirilgan. Shu bois qator hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'ati qayd qilingan, jumladan, oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati Navoiy viloyatida 184,6 % yoki hajmi 10059,1 mlrd. so'mga, Namangan viloyatida – 171,2 % yoki 7131,0 mlrd. so'mga, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 162,2 % yoki 6046,4 mlrd. so'mga, Jizzax viloyatida – 155,9 % yoki 3169,2 mlrd. so'mga, Surxandaryo viloyatida – 149,5 % yoki 6111,0 mlrd. so'mga, Farg'ona

² Stat.uz

viloyatida – 146,6 % yoki 4978,4 mlrd. so'mga, Toshkent viloyatida – 123,7 % yoki 9351,4 mlrd. so'mga, Xorazm viloyatida – 122,8 % yoki 2980,0 mlrd. so'mga va nihoyat Toshkent shahrida – 114,7 % yoki 21861,5 mlrd. so'mga³ teng bo'lgan. Milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi va o'sish sur'ati 2018-yilda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu borada yuqori ko'rsatkich Navoiy viloyatida – 10411,0 ming so'm yoki oldingi yilga nisbatan 181,5%ni, mos ravishda Toshkent shahrida – 8787,5 ming so'm yoki 112,7 %ni, Qashqadaryo viloyatida – 4816,6 ming so'm yoki 104,9 %ni, Buxoro viloyatida – 4162,9 ming so'm yoki 49,7%ni, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 3257,7 ming so'm yoki 159,9 %ni, Toshkent viloyatida – 3247,1 ming so'm yoki 122,3 %ni va Namangan viloyatida – 2615,8 ming so'm yoki 168,0 %ni tashkil etgan.

Milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga qilinayotgan investitsiyalar hajmining ortib borishi o'ziga xos muvaffaqiyatni namoyon qilish bilan bir qatorda uning manbalarining tarkibiy tuzilishi va bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan sharoitda diversifikatsiyalashuvi darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vaziyatni statistic ma'lumotlar asosida tahlil qilish mumkin. Iqtisodiyotda 2018 yilda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan oldingi yilga nisbatan 159,9 % yoki 34448,4 mlrd. so'mlik asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, u jami investitsiyalar hajmining 32,1 %i yoki oldingi yil ko'rsatkichlariga nisbatan 8,6 %ga⁴ ortiq bo'lgan.

Shuningdek, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilganlari 72884,6 mlrd. so'mni tashkil etgan va oldingi yilga nisbatan 105,3 %ni tashkil qilib, jamining 67,9 %ga teng bo'lgan. Ushbu vaziyatni tahlil qilib, 2017-yil bilan solishtirganda O'zbekiston kafolati ostidagi xorijiy kreditlar

hajimi 6,4 foizdan 15,5 foizga chiqqan yoki 9,1%ga⁵ o'sish sodir bo'lgan. Shu bois, Davlat kafolati asosida yirik loyihalarning amalga oshirilishi chet el investitsiyalari va kreditlarining yuqori o'sish sur'atlari ega bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan muhim omil hisoblanadi.

Mamlakatda mavjud moliyaviy resurslar orqali tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishga mo'ljallangan Sho'rta gaz-kimyo kompleksi qurilishi, Navoiy issiqlik elektr stantsiyasida 450 MVt quvvatli 2 bug'-gaz qurilmasini kengaytirish bo'yicha qurilish ishlari, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanida quvvati 450 MVt dan bo'lgan ikki bug'-gaz qurilmasidan tarkib topgan yangi issiqlik elektr stantsiyasi qurilishi, Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksining qurilishi, "Angren" EIZ da konveyer lentarlari, qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalari ishlab chiqarishni II-bosqichini tashkil qilish, Pop-Namangan-Andijon va qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, Pop-Qo'qon-Andijon uchastkasini elektrlashtirish bilan birga Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyalarini qurilishi, "Sharg'un ko'mir" AJ ko'mir qazib olish loyihaviy quvvatini yiliga 900 ming tonnaga yetkazish uchun modernizatsiya qilish, Buxoro va Samarqand shaharlarida kanalizatsiya tizimi va tozalash inshootlarini tiklash, Sirdaryo viloyati Boyovut, Xovos, Mirzaobod, Sardoba va Oqoltin tumanlari aholi yashash punktlarida va tuman markazlarida suv ta'minoti tizimini takomillashtirish, Buxoro viloyati Olot va Qorako'l tumanlarida ichimlik suvi ta'minoti tizimini takomillashtirish, Xorazm viloyati Toshsoqa irrigatsiya tizimi magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash va boshqalar loyihalarga investitsiya yo'naltirilgan.

Ayni paytda, tahlil qilinayotgan davrda "Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi" hisobidan iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 7894,8 mlrd. so'mni yoki 978,4 mln. AQSh dollarini tashkil qilib, u oldingi yilga nisbatan 3,7 %ga⁶ ko'paygan.

³ Stat.uz

⁴ Stat.uz

⁵ Stat.uz

⁶ Stat.uz

Qolaversa, mazkur Jamg'arma mablag'lari asosida amalga oshirilgan eng yirik investitsiya loyihalari Taxiotosh issiqlik elektr stantsiyasida 230-280 MVt quvvatli ikkita bug'-gaz qurilmasi qurilishi, "Kokpatas" va "Daugiztau" konlarida oltinni ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirish, "Auminso-Amantoy konlari"da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (GMZ-5) (I-II bosqich), Sherobod tumanida sement zavodi qurilishi, Toshkent viloyati (Olmaliq shahri) da Yoshlik 1 konini o'zlashtirish "Muruntau" karyeriga ishlov berish (V bosqich) singarilardan iborat. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya hamda kreditlar hisobiga Qandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlovchi zavodning qurilishi, Xauzak va shodi konlarini ishlab chiqarishga tayyorlash, Quvachi - Olot konlarini kengaytirish, Hisor investitsiya bloki va Ustyurt hududida konlar bilan ishlash va uglevodorod qazib chiqarishni tashkil etish, Xo'jasayot uchastkasidagi Dengizko'l gaz-kondensati koni, Xo'jadavlat gaz-kondensati koni va Sharqiy Olot gaz-kondensati konini qayta jihozlash ushbu yirik investitsion loyihalar amalga oshirilgan. Tahlil qilinayotgan davrda iqtisodiyotning nodavlat sektori investitsiyalari hajmi oldingi yilga nisbatan 12,6 %ga o'sgan.

Milliy xo'jaligimizdagi jami investitsiyalarda nodavlat sektorining ulushi—81,2% bo'lib, xususan, Qashqadaryoda—95,4%ni, Qoraqalpog'iston Respublikasida—87,4%ni, Toshkent viloyatida—87,8%ni, Namanganda — 86,6%ni, Buxoroda—86,1%ni, Farg'onada—84,1%ni, Andijonda — 81,9%ni va Surxandaryoda—78,5%ni tashkil etgan. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish — montaj ishlari—49,7 %, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar— 39,7% va boshqa xarajatlar— 10,6 % ulushga ega⁷ bo'lgan.

Iqtisodiyotimizda faoliyat turlarida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi tog' — kon sanoatida 12253,9 mlrd. so'm yoki jamiga

nisbatan 11,4%i, xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish faoliyat turida 8871,7 mlrd. so'm yoki 8,3 %, ishlab chiqarish sanoatida 23661,6 mlrd. so'm yoki 22,0%, oziq — ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 3041,5 mlrd.so'm yoki 2,8 %, tekstil mahsulotlarni ishlab chiqarish 4636,6 mlrd.so'm yoki 4,4%, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda 4097,2 mlrd. so'm yoki 3,8 %, boshqa nometal nomineral mahsulotlarda esa 2776,8 mlrd. so'm yoki 2,6 %, metallurgiya sanoatida 4299,8 mlrd. so'm yoki 4,0 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 15241,1 mlrd. so'm, yoki 14,2 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 2587,8 mlrd. so'm, yoki 2,4 %, qurilishda 2436,2 mlrd. so'm yoki 2,3%, tashish va saqlash faoliyatida 7969,5 mlrd. so'm yoki 7,4%, ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlashda 4042,2 mlrd. so'm yoki 3,8 %, axborot va aloqada 920,1 mlrd. so'm yoki 0,9 %, professional, ilmiy va texnik faoliyatda 1354,1 mlrd. so'm yoki 1,3%, ta'lim sohasida 2772,1 mlrd. so'm yoki 2,6 %, boshqa faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 17695,8 mlrd. so'm yoki 16,5 % investitsiyalar⁸ o'zlashtirilgan.

Hozirgi kunda muttasil ravishda keng — ko'lamda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar va o'zgarishlar asosida erishilayotgan muvaffaqiyatlarning tayanch nuqtasida milliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayonlarining va shu maqsadda investitsiyalarni o'zlashtirishning ahamiyati beqiyos ekanligi isbotlanmoqda. Mulohazalardan kelib chiqib bugungi kunda investitsiyalarni o'zlashtirish borasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar va natijalar investitsiya muhitining muntazam ravishda takomillashtirilib borilayotganligi uchun iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlarni uzluksiz davom ettirish imkoniyatlarini ta'minlanayotganligini tasdiqlaydi. Shu bois mamlakatimizda bu boradagi islohotlarni va o'zgarishlarni yanada rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

⁷ Stat.uz

⁸ Stat.uz